

«Hududgazta'minot» AJ Metrologik ta'minot boshqarmasining asosiy vazifalari

Jamiyat Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlangan rejalarga muvofiq gaz ta'minoti filiallari tomonidan Filiallardan tabiiy gaz tovarini qabul qilib olinishini hamda ulgurji iste'molchilarning gaz hisoblash uskunalari to'g'ri ishlashini muvofiqlashtiradi.

Boshqarma yo'nalishi bo'yicha hisobotlarni yuritilishini tahlil qiladi, ishlarni takomillashtirish bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritadi.

Tabiiy gaz hajmi va hisobini yuritish bilan bog'liq normativ hujjatlar va loyihalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi va takliflar kiritadi. Sohaga doir yangiliklar, uslubiy-amaliy mashg'ulotlar tashkil qilish hamda xodimlar malakasini oshirish bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritadi.

Gaz hisoblagichlarning metrologik ta'minotiga bog'liq bo'lgan masalalarda sud, prokuratura, huquqni muhofaza qilish organlarining tegishli topshirig'iga muvofiq mutaxassis sifatida ishtirok etadi.

Xar oy davomida ulgurji iste'molchilarning elektron gaz hisoblash uskunalari (EGHU) va ularga o'rnatilgan modem aloqa vositalarining soz holda bo'lishi, ularga o'rnatilgan tamg'alarning butligini ta'minlash, gazdan oqilona foydalanish va noqonuniy foydalanishlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha Filiallarning Metrologik ta'minot bo'limi xodimlari tomonidan olib borilayotgan faoliyatlarini kunlik nazorat qilib borish;

Ulgurji iste'molchilarga yetkazib berilayotgan tabiiy gaz hajmlarini tanlov asosida taxlil qilish, shubxali hisoblagichlar bo'yicha joylardagi metrologik ta'minot bo'limlariga tegishli ko'rsatma beradi, yoki zarur deb topilsa, joyiga chiqib o'rganish ishlarini tashkillashtirish;

Ulgurji iste'molchilardagi va Jamiyat balansidagi elektron gaz hisoblagichlarning muddatida qiyoslov ko'rigidan o'tkazishni ta'minlash;

Texnologik gaz hisoblagichlarga har hafta oxirida gaz tarkibi va zichligini kiritish, sanoat iste'molchilarining gaz hisoblagichlariga gaz tarkibi va zichligini kiritilishini nazorat qilish.

Tizimga onlayn aloqaga chiqmagan o'lchov vositalarining aloqasini tiklash yoki tarmoqdan ajratish bo'yicha Filiallarning Metrologik ta'minot bo'limi xodimlari ishini nazorat qilib borish;